

OLTIN MEROS JAMG` ARMASI HAQIDA

Qodirova Mamlakat, Mo'minovna

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Oltin meros" "jamg` armasining faoliyati ,imkoniyatlari ,vazifalari haqidagi fikrlar keltiriladi.Bu jamg` armaning imkoniyatlari borasida izohlar keltiriladi.

Kalit so`zlar: xalq, vatanparvarlik, yodgorliklar, Qoraxoniylar, arxeologik ekspeditsiya, O'zbekiston davlat muzeyi.

Asrlar osha o`z qadr-qimmatini saqlab ,ming-ming dovonlardan oshib omon kelayotgan xalqimiz bugun o`z kelajagini bardavom qurmoqda. Qurilayotgan hamjamiyatimiz uchun o`tmish oliy ibrat maktabi bo`lib xizmat qiladi. Xalqimiz merosining noyob namunalarini toplash, avaylab- asrash ,targ`ib etish , keng jamoatchilik e`tirofiga sazovor qilish ,ayniqsa ,yosh avlod ongida mustaqillik, millatsevarlik ,vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirish,milliy urf-odatlarimizni umrboqiy davomiyligini saqlash,umuminsoniy fazilatlarni ulug`lash maqsadida Respublika " Ma`naviyat va ma`rifat " markazi huzurida " Oltin meros" xayriya jamg` armasi tashkil etildi.Bu jamg` armaning vazifalari sifatida :

Asrlar osha yaratilgan bebaho madaniy-ma`rifiy merosini asrab-avaylash;

Buyuk yodgorlik sifatida avlodlarga qoldirish;

Yosh –avlod ongida milliy g`urur,milliy iftixon,vatanga ,muhabbat g`oyalarini uyg`otish;

O'zbekona qadriyatlarni xorijiy mamlakatlarga tanitish;

O`tmish madaniyatimizda xos qadimiyo qo`lyozmalar ,tarixiy hujjatlar,xalq hunarmandchiligi ,amaliy san`at namunalari va tarixiy yodgorliklarni o`rganish va izlab topish;

O'zbekiston va chet ellarda milliyona,sharqona festivallar ,ko`rgazmalar ,tanlovlard tashkil etish;

Yuksak iste`dod sohiblarini qo`llab-quvvatlash;

Millatlararo totuvlik,hamjihatlik va barqarorlikni ta`minlovchi ma`rifiy-madaniy ildizlarni tasniflash;

Iste`dodli yosh avlodni qo`llab –quvvatlash kabi vazifalari belgilandi.

Bu jamg`arma tomonidan erishilgan yutuqlar sifatida bir yodgorlikni aytishimiz mumkin.Bu yodgorlikning janubi-janubi-sharqida joylashgan aholi hududida ko'p yillar davomida ruxsatsiz shudgorlash va ekin ekish ishlari olib borilgan. 2018-yildan buyon bu yerda "Oltin Meros" xalqaro xayriya jamg`armasining Toshkent viloyati bo'limi tashabbusi hamda moliyaviy ko'magi bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti (S.R.Ilyasova) va O'zR FA Tarix instituti (E.F.Vulfert) qo'shma ekspeditsiya guruhi tomonidan kichik qidiruv ishlari olib borildi.

1



Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu yodgorlikda Qoraxoniylar davriga oid (X-XI asrlar) turarjoy majmuasi topildi. Ushbu yodgorlikni saqlab qolish uchun qazilma ishlari olib borilgan umumiy maydoni 200 kv.m. joyning tepasiga ship o'rnatildi. Bu Toshkent viloyatida o'rab olingan arxeologik yodgorlikning birinchisi bo'ldi.

Yana Jamg`armaning samarali izlanishlari tufayli Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamg`armasining Toshkent viloyati boshqarmasi tashkil etgan Shosh-Iloq ilmiy-etnografik ekspeditsiya 2021- yili Oqqo'rg'on va Ohangaron tumanlarida dastlabki ilmiy ishlarni olib bordi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bizning viloyatimizda o'tgan yuzyillikning 20-yillari oxirida ilmiy arxeologik ekspeditsiyalarga kirishildi. Eng yaxshi arxeolog mutaxassislar geologlarning faol ishtirokida tadqiqot ishlari ko'laminan ancha kengaytirdilar.

Qidiruv otryadlari viloyat hududida qariyb yarim asr ish yuritib, uzoq o'tmishimiz sahifalarini ochishga erishdi. Tarixchi, arxeolog va geologlarning bu fidokorona ishlari o'nlab muhim ishlanmalar, yuzlab qiziqarli kitob, albom va xaritalar yaratilishiga asos bo'ldi. O'zbekiston xalqlari tarixi va O'zbekiston davlat san'at muzeylarining qadimiylar saqlanadigan vitrina va omborxonalar Qanqa va Shohruhiya, Ko'lbuluoq va Tunket, Obirahmat va Dukentda topilgan yangi ashyolar bilan boyidi.

Qadimiy Ungur mozori Bo'stonliq tumani xaritasida eng yuqori nuqta, birinchi tarixiy obyekt hisoblanadi. Buni Chorvoq arxeologik otryadi 1964 -yilda aniqlagan edi. Bular Pskom daryosining o'ng qirg'og'idagi qadimiy g'orlardir. Bu yerda qazish ishlari o'tkazilmagan. Yodgorlikni tekshirgan ekspeditsiya u paleolit, ya'ni eng qadimgi tosh davriga taalluqli bo'lib, joyida statsionar chora-tadbirlar ko'riliishi talab etiladi degan xulosaga keldi. Demak "Oltin meros" "jamg`armasi o'z oltinlarini topishdi. Bu boqiy meroslar xalqimiz uchun buyuk va ardoqlidir.

"Oltin meros" "jamg`armasi butun O'zbekiston bo'y lab o'z faoliyati tashkil etdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari joylarda "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg`armasi bo'limlarini tuzishdi. Zero xalq madaniyati va ma`naviyati bir qushning ikki qanoti bo`lganidek, millat uchun muhim qanotlardir.

Jamg`arma faoliyati o`z Ustavi asosida tashkil etilib, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, ma`rifiy, madaniy ishlar doirasida tuziladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bu jamg`arma hisobiga Moliya vazirligi o`z mablag`larini o`tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, "Oltin meros" jamg`armasi xalqimizning o`tmish va kelajagi uchun ko`prik vazifasini bajaradi. Milliy mentalitetimiz, xaqlona qadriyatlarimiz ming yillar yashashi uchun o`z oltin fondini yaratadi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. "Ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi". O`quv qo`llanma. Namangan -2022.
2. Ochiq osmon ostidagi yana bir muzey. Maqola
3. Хонбобоев, Хакимжон Окрамович, Мубина Хакимжоновна Икромова, and Мухаммад-Анасхон Хакимжонович Икромов. "Ta'limda axborot texnologiyalarni qollashning oziga xos xususiyatlari." Молодой ученый 3-1 (2016): 21-22.
4. MUBINAKHON, IKRAMOVA, and IKRAMOV MUHAMMAD ANASKHON. "The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education." JournalNX 7.1: 106-108.
5. Makhmudovich, Gulyamov Komiljon, and Ikromov Muhammad Anasxon Hakimjon o'g. "DEVELOPMENT OF CHILDREN'S ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF TEACHING UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ARTS." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.5 (2022): 957-963.
6. Ikromov, Muhammadanasxon Xakimjon Ogli, and Zulhayoxon Muhtorjon Qizi. "MARKAZIY OSIYODA GRAFIKANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN BUYUK OLIMLAR." Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2.5 (2022): 627-630.
7. Gulyamov, K. M., and M. H. Ikramov. "Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics." JournalNX 7.06 (2021): 95-99.
8. Xakimjon og, Ikromov Muhammad Anasxon. "BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." Conferencea (2023): 34-38.
9. Ikromov, M. X., and A. X. Abdullaev. "METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN THE PROCESS OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
10. Гулямов, Комилjon Махмудович. "БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҶИТУВЧИЛАРИНИ КОМПЬЮТЕРДА ГРАФИК МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА КАСБИЙ ТАЙЁРЛАШ МОДЕЛИ." УЧИТЕЛЬ 3.4 (2022).